

## MIRZO BEDIL FALSAFASIDA AXLOQIY- ESTETIK QADRIYATLAR Q'RTASIDAGI MUNOSABAT

*Tavmurodov Jamshid Elmuradovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Samarqand kampusi assistenti*

## THE RELATIONSHIP BETWEEN MORAL AND AESTHETIC VALUES IN THE PHILOSOPHY OF MIRZO BEDIL

*Tavmurodov Jamshid Elmuradovich, assistant at the Samarkand campus of the University of Economics and Pedagogy*

## СООТНОШЕНИЕ НРАВСТВЕННЫХ И ЭСТЕТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ФИЛОСОФИИ МИРЗО БЕДИЛА

*Тавмуродов Джамшиид Эльмурадович, ассистент Самаркандинского филиала Университета экономики и педагогики*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola, Mirzo Bedilning falsafiy va badiiy qarashlarini tahlil qilib, uning axloqiy va estetik qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini ochib beradi. Maqolada Bedilning falsafiy g'oyalari, asosan, inson ruhiy holati, estetik tafakkur va axloqiy masalalar bilan bog'liq bo'lib, uning o'ziga xos qarashlari orqali insonning ichki dunyosini, estetik va axloqiy qadriyatlarni tushunishga urinishni ko'rsatadi. Bedilning she'riy va falsafiy merosida estetik va axloqiy tushunchalar bir-birini to'ldiradi, shuningdek, uning asarlarida bu ikki soha o'rtasidagi o'zaro bog'lanishning nozik jihatlari ifodalangan. Maqolada, Bedil falsafasining estetik va axloqiy qiymatlarini tahlil qilgan holda, uning inson va tabiat, ilm va san'at, axloq va go'zallikni birlashtirgan yondashuvlarini o'rghanishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** aql, axloq, ruh, kuch manbai, ilm, ratsionallik, "tabula rasa", "Vahdati vujud", "Vahdati mayjud".

**Abstract:** This article analyzes the philosophical and artistic views of Mirzo Bedil, revealing the relationship between his moral and aesthetic values. The article shows that Bedil's philosophical ideas are mainly related to the human psyche, aesthetic thinking and ethical issues, and his unique views show an attempt to understand the inner world of man, aesthetic and ethical values. In Bedil's poetic and philosophical heritage, aesthetic and ethical concepts complement each other, and his works also express the subtleties of the relationship between these two areas. The article, analyzing the aesthetic and ethical values of Bedil's philosophy, aims to study his approaches that combine man and nature, science and art, morality and beauty.

**Key words:** mind, morality, spirit, source of power, science, rationality, "tabula rasa", "The unity of existence", "The unity of existence".

**Аннотация:** В статье анализируются философские и художественные взгляды Мирзо Бедила, раскрывается взаимосвязь его нравственных и эстетических ценностей. В статье показано, что философские идеи Бедила в основном связаны с человеческой психикой, эстетическим мышлением и этическими проблемами, и что он пытается понять внутренний мир человека, эстетические и



<https://orcid.org/0009-0004-8123-5891>  
e-mail: [farno1929@gmail.ru](mailto:farno1929@gmail.ru)

этические ценности посредством своих уникальных взглядов. В поэтическом и философском наследии Бедила эстетические и этические концепции дополняют друг друга, а его произведения также выражают тонкости взаимоотношений этих двух сфер. Цель статьи — проанализировать эстетические и этические ценности философии Бедила, изучить его подходы, объединяющие человека и природу, науку и искусство, мораль и красоту.

**Ключевые слова:** разум, мораль, дух, источник силы, наука, рациональность, «*tabula rasa*», «Единство бытия», «Единство бытия».

**KIRISH.** Mirzo Bedil, o‘zining falsafiy va estetik qarashlari bilan Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri bo‘lib, nafaqat adabiyot, balki inson ruhiyatini anglashda ham o‘ziga xos yondashuvlarni taqdim etgan. Uning asarlari, o‘zining chuqur falsafiy qarashlari bilan birga, estetik va axloqiy qadriyatlarni birlashtirgan holda, insonning ichki dunyosini, uni shakllantiruvchi tamoyillarni va atrof-muhit bilan aloqasini izohlaydi. Bedil falsafasida axloqiy qadriyatlар, insonning yuksalish yo‘li va ruhiy kamolotini ta’minlash uchun estetik go‘zallik va san’at bilan bog‘liqdir.

Maqlada, Bedil falsafasidagi axloqiy va estetik qadriyatlар o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish, uning dunyoqarashining asosiy jihatlarini yoritish maqsad qilinadi. Bedilning nazarida, go‘zallik va axloqiylik bir-birini to‘ldiruvchi, bir-biriga tayanadigan qadriyatlardir. Estetik tafakkur orqali insonni axloqiy mukammallikka olib borish mumkinligini ta’kidlaydi, chunki san’at va go‘zallik ruhni poklash, qalbni soflashtirish va jamiyatni yuksaltirishning vositalaridir.

Shu o‘rinda, maqlada Bedilning badiiy asarlari va falsafiy g‘oyalardan olingan misollar orqali uning estetik va axloqiy qadriyatlarni qanday birlashtirganligi, insonning ichki va tashqi olami o‘rtasidagi uyg‘unlikni qanday aks ettirganligi yoritiladi. Bedil falsafasi orqali insoniyatning ma’naviy yuksalishi va go‘zallikka bo‘lgan intilishi, uning axloqiy qarashlari bilan birgalikda, o‘z zamonasidan ancha oldinga borib, bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Maqola, Mirzo Bedil falsafasida axloqiy va estetik qadriyatlarning o‘zaro aloqalarini chuqur tahlil qilishga, uning asarlaridagi axloqiy va estetik yondashuvlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning g‘oyalari orqali inson va tabiat, go‘zallik va axloq o‘rtasidagi bog‘lanishni tushunishga yordam beradi[1].

Inson yaralgandan boshlab o‘z hayoti va turmush tarzini o‘zgartirib kelmoqda. Insoniyat evolyusiyasining bosqichlaridan so‘nggi paleolit

davriga kelib jismonan bugungi qiyofadagi insonlardan farq qilmaydigan kromanyon odamlarining vujudga kelishi va eng asosiysi “Homo habilis” ya’ni “ishbilarmon odam”dan farq qiluvchi “Homo sapiens” ya’ni “ongli odam”ga o‘tishi bilan aql va axloq masalalri ham rivojlanan boshlagan[2].

Sharqning eng yaxshi va taniqli shoirlari bilan bir qatorda, Mirzo Bedil fors-tojik adabiyotining mashhur shoiri, jamiyatshunosi va tabiatshunosi, mutafakkiri, faylasufi bo‘lgan. Mirzo Bedilning she’riyati o‘zining ko‘p qirraliligi bilan Hindiston, Afg‘oniston va O‘rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va adabiy hayotida muhim o‘rin egallagan.

Mirzo Abdulqodir Bedil insonning ruhiy faoliyatini tananing sog‘lig‘iga, sihatligiga bog‘liq deb, bu faoliyat uch xil kuchda namayon bo‘ladi, ya’ni jismoniy kuch, aqliy kuch, ruhiy kuch deb ta‘kidlab o‘tadi[3]. Uning fikricha, jismoniy kuch – harakat, mehnat qilish, aqliy kuch – o‘qish, o‘rganish, bilim olish, ruhiy kuch – imon-e’tiqod, ishonch, xudoni tanishdan iborat bo‘lib hisoblanadi.

Mirzo Bedilning falsafiy merosi insoniyatning falsafiy qarashlari rivojiga qo‘shilgan boy durdona bo‘lib, o‘z vaqtida u inson aqlining qudratini, ilm-fanning kuchini to‘g‘ri ko‘rsatib bera olgan va o‘z falsafiy qarashlarida ilg‘or g‘oyalarni ilgari sura olgan faylasuflar safida munosib o‘rin tutadi.

Mirzo Bedil insonning axloqiy qadriyatlarni sinchiklab o‘rganar va tahlil qilar ekan, barchaning xulq-odobi bir xil emasligi, yaxshi xulq bor joyda yomon, ya’ni salbiy xislatlar ham borligiga o‘z e’tiborini qaratadi[4]. Kishilar orasida saxiylar va baxillar, yaxshi-yu yomonlar, halol va nopolklar borligini ko‘rib, insonda olivjanob xislatlarni rivoj toptirish yo‘llarini izlaydi.

Sharq donishmandlarining ta’limotida donolik va go‘zal axloq insonning baxt-saodati bilan bog‘lanadi. Bedil ta’limoti ham bundan mustasno emas. Masalan, Abu Nasr Forobiy ilm, donolik va aqlni baxtga erishishning asosiy vositasi sifatida talqin etadi. Uningcha, aql va fan yordamida

shunday ma'naviylik darajasiga ko'tarilish mumkinki, bu ma'naviylik avlodlar o'limidan keyin ham insoniyat uchun xizmat qiladi.

Insonning aqliga, tafakkuriga donishmandlar bergen bunday fikrlarni ko'plab keltirish mumkin. Bulardan donolikning mag'zi aql-tafakkur va ilmdadir, degan xulosa chiqadi. Haqiqatdan ham aql – donolik, yetuklik, ezgulikning o'zagi. Agar aql ilm bilan boyitsa, insonning ma'naviyati yana bir pog'onaga ko'tariladi. Buning isbotini biz Bedil ta'lomitida yanada ravshanroq ko'ramiz[5]. Mirzo Bedil ilmni insonning asl gavhari ekanini ta'kidlar ekan, tabiatning yashirin sirlarini inson idrok qilishi uchun odam bilmeli bo'lishi, qunt bilan o'qishi kerakligi haqidagi fikrni ilgari suradi.

Ratsionallik tarafdoi bo'lgan Mirzo Bedil o'z zamonasining ma'rifatparvari sifatida ilmiy fikrlarni rivojlantirish va ularni turmushga tatbiq qilish g'oyasini ilgari suradi. Shu asosda u bilish nazariyasini yaratdi, his, tushuncha va aql masalalarida o'z nuqtayi nazarini bayon qiladi.

Uning nazarida faylasuflar bilishning birinchi bosqichi tashqi moddiy borliq ta'siri bilan hosil qiluvchi hislar, tuyg'ular bilan bog'liq ekanligini yozadi va hidlash (shoma), ko'rish (binoi), ta'm tuyg'usi – maza (zoiqa), eshitish (shunidani) va teri sezish – paypaslash (lomisa) ning xizmatlarini birma-bir so'zlab beradi[6].

Ana shu sezgi organlariga tashqi dunyoning ta'siri natijasida insonda sezish, his boshlanadi, so'ngra esa tasavvur fikr (xayol) paydo bo'ladi. Bedil inson bilishini tashqi his, sezgi bilan chegaralamaydi, balki aqlning xizmatini, ahamiyatini ko'rsatib, o'z fikrlarini yanada kengaytiradi. U, hislar orqali obyektdan olingan sezgilar zehnda saqlanib, ong (aql) oynasida aniqlanadi deb aytadi[7].

Bedil aqlni, xuddi oynaga, xuddi toza taxtaga ("tabula rasa"ga) o'xshatadi, unda tashqi ashylar o'z izlarini qoldiradilar, o'z suratlarini yasaydilar, shu tufayli miyamizda fikrlar tug'iladi, degan fikrda to'xtaladi. Bedil sezgi, tasavvur, tushuncha, aql tabiatda, olamda o'z manbalariga egadir, deb aniq va ravshan so'zlaydi. Biroq, uningcha aqlning boshqa manbalari ham bor: bu ong qobiliyati, aql qobiliyatidan iboratdir va insonning haqiqiy bilimi aql yordami bilangina mumkindir[8].

Bedil o'z zamonasining sharoitlariga bo'yin egdi, bu masalada mutakallimlarini tanqid qilgan bo'lsa-da, lekin diniy g'oyalari ta'siridan butunlay xalos bo'la olmadi. Ma'lumki, dindorlar imonga e'tiqodni birinchi o'ringa, aqlni esa ikkinchi o'ringa qo'yadilar. Bedil bunga qarshi o'laroq, aqlni yuksaklikka ko'taradi. U shunday yozgan edi: "Imoni beaql chun javhare be oinai naqshe ast mavhum, va hayoi bexirad chun obi bechashma sarobe ma'dum". Ma'nos: "Aqlsiz iymon xuddi oynasiz javohirday asossiz (mavhum), yo'q naqshdir va aqlsiz hayo xuddi manbai bo'lмаган suv kabi ma'dum – yo'qlikdir".

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda Bedil falsafasida inson mohiyatini uning real borlig'i orqali tushunishga urinadi. Inson – ilohiy xilqat. U shunga yarasha umr o'tkazishi lozim, ya'ni ezgulik ishlari bilan shug'ullanib, dunyo tashvishlaridan ozod bo'lib, har xil rasm-rusumlar, behuda zohiriy timsollar quliga aylanmaslik kerak. Shunda u aql, axloq, e'tiqod, mazhab va dinlarning mohiyati bir ekanini anglashi mumkin.

## ADABIOTLAR RO'YXATI:

1. Bedil, M. (1985). Divan-i Bedil.
2. Tursunov, F. (2003). Mirzo Bedil: falsafiy g'oyalari va tarixi.
3. Qodirov, R. (2010). Mirzo Bedil: estetik tafakkur.
4. Ismailov, S. (2005). Mirzo Bedil va Sharq falsafasi.
5. Mavlanovna A.M., Kurbanovna M.M. Socio-philosophical problems of culture and marginal spirituality //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 2579-2583.
6. Rizaev I. Liberalization of the social system: constructive and destructive aspects //TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 58-64.
7. Usmonov F.N. The Role Rationalization In The Acceleration Of Life Sequence //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 3. – C. 227-229.
8. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.